




IJODKOR
O'QITUVCHI

ТВОРЧЕСКИЙ
УЧИТЕЛЬ

CREATIVE
TEACHER





«BEST PUBLICATION»

Ilm-ma'rifat markazi ©

IJODKOR O'QITUVCHI
ILMIY-USLUBIY JURNAL

MATERIALLARI TO'PLAMI

5-MAY, 2023-YIL

29-SON



INDEX  COPERNICUS
INTERNATIONAL

HAQBHAR DEXTRONHAR
BIBLIOTEKA
 LIBRARY.RU

 doi digital object
Identifier

 Google

 CYBERLENINKA

TAHRIRIYAT

Bosh muharrir
Maqsudov Ulug'bek Qurbonovich
Mas'ul muharrir:
Yusufjonov Quyoshbek Komiljon o'g'li
Mas'ul kotib:
Xasanov Tursunali Xaydarali o'g'li
Nashrga tayyorlovchi
Sultonov Sardorbek
Farg'ona davlat universiteti

TAHRIR KENGASHI A'ZOLARI

Mo'minov Qobiljon Qodirovich
Fizika-matematika fanlari doktori professor
Sultonali Mannopov
O'zbekiston xalq artisti, professor
Mamatova Nodira Muxtarovna
Tibbiyot fanlari Doktori (Ds)
Tuychiyeva Inoyat Ibragimovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Shamsiyeva Maxfuzaxon Xuja qizi
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Rasulova Vasila Batirovna
Toshkent farmatsevtika instituti, Biologiya fanlari nomzodi, dotsent
Nikadambayeva Hilola Batirovna
Uzbekiston jumalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti, Pedagogika fanlari
nomzodi, dotsent
Pirimov Akram Pirimovich
Navoiy davlat pedagogika instituti, dotsent
Shodiyev Furqat Davranovich
Navoiy davlat pedagogika instituti, Texnika fanlari
nomzodi, Dotsent
Qurbonova Muqaddas Omonovna
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Solijonov Muhammadjon Zokirjon o'g'li
Qo'qon DPL, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD)
Imomqulov Tulkin Burhonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Iqtisodiyot
fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Isakova SHoxidaxon Ikramovna
Qo'qon DPL, Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.
Xorijiy tillar fakulteti. Fakultedararo chet tili kafedrasida
Umarov Farxod Umirovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori,
O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari Akademiyasi katta o'qituvchisi
Nurullayeva Shoirra Kushnazarovna
Urganch Davlat universiteti, Tarix fakulteti, Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Qodirova Shaxlo Salomovna
Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti, tibbiyot falasafa
fanlari doktori, PhD
Raxmatova Dilbar Baxriddinovna
Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti,
tibbiyot falasafa fanlari doktori, PhD
Djumayev Baxodir Zayniddinovich
Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti,
falsafa fanlari doktori (PhD)

NOLOKAL SHARTLI TESKARI MASALA	
Санжар Жураев Шавкат Тураев <i>ДВУХПОЯСНЫЕ ПРЕДВАРИТЕЛЬНО НАПРЯЖЕННЫЕ СИСТЕМЫ</i>	87
Баратов Дилшод Донъярович <i>БУЛАЖАК МУҲАНДИСЛАРНИНГ ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРГАРЛИКЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ШАРТ-ШАРОИТЛАРИ</i>	92
Хўжаев Хамидулло Шахобиддинович Ўрнинов Дилмуроджон Мирзамахмудович Исмоилов Илёсбек <i>АНДИЖОН ВИЛОЯТИ ИҚЛИМ ШАРОИТИДА ОЛМАНИНГ ЎРТАКИ НАВЛАРИНИНГ ДАСТЛАБКИ НАТИЖАЛАРИ</i>	96
Зарифов Бобур Анзор ўғли <i>ЁШЛАРНИ ИШИ БИЛАН БАНДЛИГИ</i>	99
Xalilov Qobiljon Solijonovich Sodiqov Bahodirjon G'ofurjon o'g'li <i>UCHINCHI TARTIBLI PARABOLO-GIPERBOLIK TENGLAMA UCHUN BIR NOLOKAL MASALA</i>	107
Muyaddinova Yulduzxon Muxtorovna <i>BIOLOGIYA FANLARINI O'QITISHDA AKTDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI</i>	114
Muratova Ra'no Zarifjon qizi <i>DAVLAT HOKIMIYAT TIZIMIDA PARLAMENTNING ROLI</i>	116
Toxir Halimovich Tojiyev Axrorjon Numonjonovich Boynazarov <i>DORI MODDALARNING INSON ORGANIZMIGA YUBORISHNING 4 MATEMATIK MODELIDAN BIRINCHI HOLATI</i>	118
Jumayev Mustaqim Rofiyevich Sattorova Gulandom Hamroqulovna Tursunov Adiz Nurali o'g'li <i>SIRTY PLAZMAVIY TO'LOQLAR (FLAZMONLAR) NING DISPERSIYAVIY XOSSALARI</i>	124
Musulmanova Nargiza Rahmatillaevna Karlig'ash Sarekenova Kurmangalikiyzy <i>O'ZBEK VA QOZOQ TILLARIDA SINGARMONIZM MUAMMOLARI</i>	132
Berdiev Marufjon <i>REALIZATION OF FRAGMATIC FEATURES IN THE TRANSLATION OF MOVIES: IN THE EXAMPLE OF ENGLISH AND UZBEK DABBING AND SUBTITLE TRANSLATION</i>	136
Rajabova Umida Ismatilla qizi <i>SAYLOV TIZIMI VA REFERENDUM JARAYONLARI - XALQ HOKIMIYATCHILIGINING ASOSI</i>	139
Masharipov Rahmatulla Beknazarovich <i>SINDAN TASHQARI O'QISHNI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH METODIKASI</i>	143
Хушбоқова Нигора Ғайрат кизи <i>ФУКАРОЛИК ҲУҚУКЛАРИНИ ХИМОЯ ҚИЛИШ УСУЛЛАРИ</i>	147

O'ZBEK VA QOZOQ TILLARIDA SINGARMONIZM MUAMMOLARI

Musulmanova Nargiza Raxmatillaevna

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU dotsenti, f.f.n

E-mail: Nargizajon75@mail.ru

Karlig'ash Sarekenova Kurmangalikyzy

Qozog'iston L.M.Gumelyov nomidagi Yevroosiyo milliy universiteti professori, f.f.n

E-mail: sarekenova_kk@enu.kz

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek va qozoq tillaridagi ayrim unli va undosh tovushlar talaffuzi hamda imlosidagi muammolar, singarmonizm hodisasi va uning tilning fonetik qatlamiga ta'sir doirasi haqida gap boradi. Shuningdek, tillarning rivojlanishida tilshunos olimlarning qo'shgan xissalari bir qadar tahlil qilingan va munosabatlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: singarmonizm, fonetik qonun-qoidalar, grammatika, o'zak, qo'shimcha, akustik-artikulyatsion, o'zbek tili grammatikasi, qozoq tili grammatikasi.

Abstract: This article will talk about the pronunciation and spelling problems of certain vowel and consonant sounds in Uzbek and Kazakh languages, the phenomenon of singarmonism and its sphere of influence on the phonetic layer of the language. Also, the contributions of linguistic scientists in the development of languages were somewhat analyzed and relations were expressed.

Keywords: singarmonism, phonetic law-rules, grammar, stem, suffix, acoustic-articulatory, Uzbek grammar, Kazakh grammar.

Har bir millatning o'z ona tili va bu ona tilining o'ziga yarasha qonun-qoidalari borligi hech kimga sir emas. Uzoq yillar davomida o'zbek tilining fonetikaga oid muammolari o'z poyoniga yeta olmayotgani kundek ravshan. "Ma'rifat" gazetasining bir nechta so'nggi sonlarida tilshunos olimlarimizning singarmonizm hodisasi, tilimizga majburan "yuklatilgan" ayrim fonetik qonun-qoidalar, ona tilimiz tarixidagi ko'plab muammolarning o'z yechimini topmagani va ayrim tilimiz uchun muhim bo'lgan tovushlar (yoki harflarning) "qatag'on" qilingani haqidagi qarashlari chop etildi. Ularni o'qir ekansiz, ona tilimizning taqdirini bu tilni o'z ona tili deb hisoblamagan, uni ravnaq toptirish yo'lida emas, aksincha, tanazzulga uchratish harakatida bo'lgan ayrim olimlarning fikrlaridan hayratga tushishingiz hech gap emas. Xususan, Y.Polivanov, K.Yudaxin kabi turkiyshunoslarning o'zbek tilini va uning nafaqat leksikasi va grammatikasi, balki fonetikasini ham "ruslashtirish" harakatlari, bu harakatlari doirasida ko'plab haqiqiy ona tilimizning jonkuyarlari, shu tilda so'zlab, shu tilda ijod qilgan millitimiz fidoyilarining qarashlariga qarshi chiqishlari va, alal oqibat, ularning o'zlarini ham yo'q qilish harakatlaridan nafratingiz oshishi aniq. Shu o'rinda mazkur maqolada keltirilgan akademik Sh.Shoabdurahmonovning fikrlarini juda qat'iy va o'z o'rnida singarmonizmning zarurati to'liq ochib berilgan deb hisoblaymiz. Xuddi shunday, Ashurali Zohiriyning ham "sof o'zbek tilida singarmo'nizm borlig'ini hech kim inkor qila olmaydi. Hol shundoq bo'lg'ondan keyin, cho'zgining (og'ir yengilligi bilan) to'qquzta qilinishi, shu singarmo'nizmga asoslang'on. Ya'ni: singarmo'nizm bilan cho'zgining to'qquztaligi bir-biriga qattiq bog'lang'on", degan

fikrni bildirgan.¹ Demak, ularning unlilar borasidagi qarashlari bugungi kun singarmonizm muammolarini hal qilishning dastlabki qadamlari bo'lgan, ammo bu muammolar haligacha hal qilinmagan deb e'tirof etiladi. Umuman olganda, unlililar muammosi har doim bo'lib kelgan va bu muammolarni hal qilish vaqti yetib keldi deb hisoblaymiz.

XX asr boshlaridan o'zbek alifbosida nechta unli bo'lishi kerak degan muammo kun tartibidagi asosiy masalalardan biriga aylanganiga ko'plab tadqiqotlar va maqolalar orqali guvoh bo'ldik. Demak, fonetikamiz (ha, aynan bizning fonetikamiz) bu muammoni bugungi kungacha ham hal qila olgani yo'q.

Xo'sh nechta unli bo'lishi kerak? Bugungi alifbomizda 6 ta unli bo'lib, uning singarmonik hodisalariga shu paytgacha e'tibor deyarli qaratilmadi. Negaki, go'yoki ortiqcha tashvishning keragi yo'q edi. Ammo, biz o'zga tili guruh vakillariga o'zbek tilini o'rgatayotganimizda (xususan xorijliklarga) singarmonizmning qanchalik muhimligini, fikrimiz ifodasi jarayonida aynan unlilar orqali talaffuzning mukammalligi, bir tovushning turli o'rinlarda turlicha talaffuz etilayotganligini tushuntirayotganimizda ularning yozma ifodasi yo'qligi qiyinchiliklar tug'diradi.

Ayrim rus tilshunos olimlarning, xususan Y.D.Polivanovning o'zbek tili 6 unliga itisolashtirilganligi haqidagi fikrlari uning o'zbek tilini ham adabiy tilda, ham shevalarda talaffuzlariga befarqligimikin yoki grammatika, ayniqsa fonetikani rus grammatikasi yoki fonetikasiga majburlab moslashtirishmikin, deb o'ylab qolasan. Uning fikricha, Toshkent shahar shevasi aynan shu 6 unliga mos emish. Olim bu shevada ham undoshlar qurshovida bo'lgan unlilar, ba'zan so'z va shakl yasovchi qo'shimchalar so'zlarga qo'shilganda undoshlarning ta'siri asosida so'zlarda singarmonik hodisalar yuz berishini bilmaganmi yo bilib turib, o'zini bilmaganga olganmi? Masalan, *qalim* va *kamina* so'zlarini talaffuz qilganda a tovushining "*qalim*" va "*ingichka*" talaffuzi har qanday til vakili nutqida farq qilishini anglab olish qiyin emas.

Biz M.V.Lomonosov nomidagi MDU Toshkent shahar filiali Filologiya va Matematika yo'nalishi rusiyazon talabalariga o'zbek tili fanini o'qitish jarayonida bu kabi chalkashliklarga, ya'ni shu kabi so'zlarni to'g'ri talaffuz qildirish jarayonida ko'p qiyinchiliklarga duch kelmoqdamiz. Ba'zan ularning o'zlari ham ayrim shunday so'zlarni transkripsiya asosida yozib olib o'rganishmoqda. Har safar ular "Nega *u* va *o*' o'zbek alifbosiga alohida harf sifatida kiritilgan, ammo qalin va ingichka talaffuz qilinadigan *q*, *o* va *i* harflarining bunday juftlari yo'q" deb haqli e'tiroz bildirishadi.

Agar ahamiyat beradigan bo'lsak, tilni, xususan o'zbek tilini auditoriya sharoitida emas, balki ko'chada o'rganish osondek bo'lib qolyapti. Negaki, ko'chada (biz shartli ravishda ko'cha deb oldik, aslida nutq mavjud bo'lgan har qanday muhitda) tilni o'rganish va qo'llash qulaylik tug'diradi. Sababi, xorijlik o'zbek tilini o'rganganda muloqot jarayonida ko'pincha shevaga xos tarzda suhbatga kirishishi mumkin. Bizga ma'lumki, tovushlarning talaffuzi ko'p jihatdan shevalarda ham farq qiladi. Xususan, Toshkent shahar shevasi Qashqadaryo yoki Namangan viloyati shevalaridan tubdan farq qiladi (masalan: *balig* – adabiy tilda, *balu* – Toshkent shevasida, *kelayapti* – adabiy tilda, *kelo'ti* – Namangan shevasida, *u yoqqa* – adabiy tilda, *aqqa* yoki *eqqa* – Qashqadaryo shevasida). Biz xorijliklarga nafaqat adabiy tilni, balki

¹ Jo'ra Xudoyberdiyev. Qatag'on qilingan tovushlar qiymati. "Ma'rifat" gazetasi 2023-yil, 1-mart, №9 (9438)

shevalar o'rtasidagi fonetik va leksik farqlar, ularning o'ziga xosliklarini ham o'rgatishga harakat qilyapmiz. Talaffuz doirasida qaysidir viloyatning tili yumshoq, ya'ni "muloyim", qaysidir viloyatning shevasi "qo'polroqdek" tuyulishi ham uning dialektik o'ziga xosliklaridan biridir. Shunday ekan, tilni o'rganayotganda va o'rgatayotganda faqat adabiy til me'yorlari bilan chegaralanib qolmasdan, o'sha tilda mavjud bo'lgan ayrim hududiy dialektlar bilan ham tanishib va tanishtirib berish zarur deb hisoblaymiz.

Bizning tilimiz turkiy tillar oilasiga mansub bo'lib, ko'plab (deyarli 80%) turkiy tillar lotin alifbosini qabul qilgan ekan, nega ularda mavjud bo'lgan singarmonizmni ham qabul qilmaymiz? Masalan turk tili alifbosida bir qancha unli, hatto undoshlarning ham singarmonik juftlari berilgan. Ozarbayjon tili alifbosida ham ularning ba'zilarini ko'rishimiz mumkin. Qozoq tili yangi tahrirdagi lotin yozuviga asoslangan alifbosida ham ushbu fonemalarning singarmonik juftlari mavjud. Turkman tili lotin yozuviga asoslangan alifbosida ham ayrim unilarning o'z juftlari borligini ko'rish mumkin.

Lotin yozuviga asoslangan alifboga *a*, *o* va *i* unilarining singarmonik juftlarini ham kiritilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi deb hisoblaymiz³.

Qozoq so'zlarining talaffuzi o'ziga xos rang-barang va shakllangan ohangga ega. Uning asosi shundaki, so'zlardagi tovushlar o'zaro eksklyuziv va bir-birini istisno qiladi; masalan, qozoq tilida so'zlardagi qalin, ingichka, labial, burun unilarining bir tekis ketma-ket talaffuzi orqali og'zaki so'zlar oqimi qo'polliksiz bir hil bo'ladi. Qozoq tilining bir xil imkoniyatlaridan foydalangan holda gapirganlarning nutqi qiziqarli va ta'sirli bo'ladi.

Bu 2002 yilda nashr etilgan "Qozoq grammatikasi" asarida yaxshi tushuntirilgan⁴. Masalan:

Tovushlarning o'zaro kombinatsiyasi ma'lum bir yaxshi o'rnatilgan naqshga, har bir tilga xos tizimga ega. Zamonaviy qozoq tilida o'zak va qo'shimcha o'rtasida yaqinlashadigan harf va tovushlarga xos bo'lgan konsonansning asosiy qonunlari quyidagicha:

1. Agar o'zakning oxirgi bo'g'ini qalin bo'lsa, unda unga biriktirilgan qo'shimchalar ham qalin bo'g'inga ega: *жармыс-шы-лар-дың, қарт-тар-дың, бақша-мыз-да, мекеме-де, береке-сі, теңіз-ші-лер, кітап-тың, мұғалім-нің, қасиет-ке, көгал-ға, саясат-ты*.

2. Agar o'zakning oxirgi bo'g'ini ingichka bo'lsa, unga biriktirilgan qo'shimchalar ham ingichka bo'g'inga ega: *мекеме-де, береке-сі, теңіз-ші-лер, мұғалім-нің, қасиет-ке, қателік-тер-ді*.

3. O'zakning oxirgi tovushi unli bo'lsa, unga qo'shiladigan qo'shimchalar bilan boshlanadi: *бала-лар, бала-ға, бала-да, бала-мен, жыл-дін, жыл-ев, жыл-мен*.

4. O'zakning oxirgi tovushi undosh bo'lsa, unga qo'shiladigan qo'shimcha ham undosh bilan boshlanadi: *қыз-дар, қыз-ға, жез-ев, жез-ді, мұқтаж-дық, уәж-дар, уәж-ев, уәж-ді, уәж-ден*.

5. Agar oxirgi o'zak jarangsiz bo'lsa, qo'shimcha ham doim jarangsis undosh bilan boshlanadi: *мақсат-қа, мақсат-тан, мақсат-пен, университет-те, университет-пен*.

³ Nargiza Musulmanova. Xonjiliklarga o'zbek tilini o'rgatishda duch kelinayotgan ayrim harf va tovush muammolari. Ma'rifat. 25.03.2023. <http://marifat.uz/marifot/rubika/fan/XONJILIKLARGA-O-ZBEK-TILINI-O-RGATISHDA-duch-kelinayotgan-ayrim-harf-va-tovush-muammolari.htm>

⁴ Қазақ грамматикасы. Фонетика, сөзжасау, морфология, синтаксис. – Астана, 2002. – 784 б. (83-б.)

Morfemalar bitta qalin yoki ingichka tovushlar bo'lib, akustik-artikulyatsion tomondan bir-biri bilan birlashtirilishi uchun biz muvofiqlashtirilishi yoki tovushlarning konsonans qonuni deb ataymiz. Tovushlarning uyg'unligi qonuni qozoq tili fonologiyasining eng dolzarb muammolaridan birini anglatadi. Faqat tovushlarning akustik-artikulyatsion xususiyatlarini aniq bilgan holda, bu muammoni yaxshiroq ishlab chiqish va tushunish mumkin.

So'zlat orasida o'zakning so'nggi tovushiga qarab emas, balki har doim o'z holatini saqlaydigan holatlar ham qozoq tilida mavjudlar mavjud.

Bular: *nikı (-dikı, -miki), men (-ben, -nen), künem, xana, nama, zoi, qoi, kez, keş, naz, ser, ker, tal, dar, qor, ban* so'zning oxirgi bo'g'inlariga qo'shiladi: *ataniki, aqıldiki, qazaqtiki; qogamnen, qızben, ultiñen; naydaqünem; jatarxana, emxana; adisnama; danazoi, aqılzoi; sänqoi, guesqoi; arbakesh, bayshykeş; jısankez; önernaz, bilimnaz; zaqser, saudager; kesiñker, qayıratker; sezimtal, ızymtal; dındar, qarызdar; eñbeyqor, jemqor, meıırban.*

So'zning oxirgi bo'g'iniga bo'ysunmaydigan ushbu holatlarning aksariyat boshqa tillardan olingan yoki hali to'la o'zlashmagan til elementlaridir.

Albatta, har bir tilning o'ziga xos jozibadorligi va milliy xususiyatlari bor. Ammo tilimizning kamchiliklarini bartaraf etmagunimizcha, uning jozibadorligi va o'ziga xosligi parda ortida qoladi. Boshqa tomondan, biz barcha tilshunoslar singari qo'shniq voqealari ham so'zlarni to'g'ri va aniq talaffuz qilishda va tilni mukammal o'rganishda muhim rol o'ynashiga ishonamiz.

